

“MAKON” MAZMUNI IFODASINING FALSAFIY TALQINI

Turdiyeva Nilufar Yokubovna

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, f.f.n.
nilufarturdiyeva0082@gmail.com +998 94 4710082

Mamatmurodov Alisher Abdusaid o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo`nalishi xisoblangan konsept tushunchasi, unga bo`lgan musabatlar talqini hamda “Makon” konseptining tarixiy tavsiflari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Konsept, tipologiya, verbalizatsiya, ontologiya, dunyoning ilmiy manzarasi, paradigma, konseptualizatsiya, mental tizim, kognitiv va tipologik yondashuv.

Tilshunoslikning eng serqirra va eng qiziqarli xamda hozirga kunda o`ta dolzarb muammolarni o`z ichiga olgan bo`limlaridan biri bu konseptologiyadir. Zamonaviy tilshunoslikda konseptlar ilmiy tadqiqotlarning markaziy o`rinlardan birida turadi. Ushbu maqolamizning xam dolzarbligi shundaki hozirgi vaqtda ingliz va o`zbek tillarida konseptlar va ularning lingvotipologik taxlili muammolari tilshunoslarning oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Shunday ekan, ushbu maqolamiz mavzusi qilib bunday muammoni tanlashimiz bejiz emas, albatta. Maqolamiz doirasida ingliz tili konseptologiyasini o`zbek tili bilan qiyoslagan xolda faqatgina bir konsept, “Makon” konsepti doirasidagina chuqur o`rganib, uning ochilmagan qirralarini namoyon etishda ma`lum darajada o`ziga xos muxim ilmiy izlanish olib bordik.

Tadqiqotchilarning fikricha, tipologik yondashuvning farqli tomoni tadqiqotning integral xarakterga ega bo`lishida namoyon bo`ladi [3]. Kognitiv va tipologik yondashuv o`zaro aloqada murakkab mental jarayonlar va bilimlar tadqiqini olib boradi. Inson miyasining o`rganilishi ushbu muammo bilan bog`liq bo`lgan qator fanlarni birlashtirdi. “Mantiq, tilshunoslik, psixologiya, kompyuter xaqidagi fanlarni birlashtiring, - yozadi R. Stenning, - va siz kognitiv tipologiya xaqidagi fanni keltirib chiqarasiz” [4].

Kognitiv tipologiya fani doirasida inson fikrlash faoliyatini tadqiq qilish masalalari mumkin qadar osonlashtirilgan. Kognitiv tipologiya o`rganayotgan muammolar ichida – konseptlar verbalizatsiyasini o`rganish xam o`rin egallaydi. Konseptlar bu mental tizimlar bo`lib, inson qanday va nimani o`ylaydi, tushunadi, gapiradi va tushuntiradi kabi vazifalarni aniqlaydi. Insonning olam bilan munosabatidagi bu va boshqa funksiyalarini bajarib, muloqot jarayonida shakllanadi va doimiy ravishda modifikatsiyalanadi. Shu yo`sinda konseptlar obyektiv xarakterni kasb etib, insonlarning o`zaro tushunishlarini amalga oshiradi. Biroq xar bir inson borliqni idrok qilishning individual xususiyatiga ega bo`lib, ma`lum bir ijtimoiy va madaniy muxitda yashaydi, buning natijasida turli insonlar tomonidan bir konsept subyektiv parametrlarga ko`ra xarakterlanadi.

Bu asos lingvistika va tipologiyani yaqin bo`lgan fanlarga murojaat qilib o`rganilayotgan konsept – “Makon” – konseptining ontologik asoslarini taxlilini olib borishga va makon mazmunini tushunilishi xususiyatlarini o`rganib chiqishga turtki bo`ldi.

Ta`kidlash joizki, ontologik mazmunda makon va joy bir mazmuni kasb etmaydi. Tilshunoslar nuqtai nazarida tilda aks etadigan dunyo manzarasida makon va joy mazmuni yaxlitlikni kasb etib ularni bir-biriga qarama-qarshi qo`yish muxim xisoblanmaydi [4]. Bu fikr tadqiq qilinayotgan leksik birliklar asosida o`z tasdig`ini topadi. Ular chegaralangan makon qismlarini bildiradi va obyektlar lokalizatsiyasini makonda bo`lgan oriyentirlari sifatida xizmat qiladi.

Falsafaiy dunyoqarashga murojaat qilgan xolda, faqatgina bizning tadqiqot yo'nalishimizga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni keltiramiz. Bu ma'lumotlarni masalaga lingvistik yondashuv yuzasidan taxlilini olib boramiz.

Dunyoning lisoniy manzarasini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlarda asosiy narsa - dunyoning ilmiy manzarasini shakllantiradigan bilimlarning ilmiy paradigmasi va inson ilmiy bilimlardan nisbatan mustaqil ravishda foydalanadigan bilimlarning sodda paradigmasi qarama-qarshiligidir. Zamonaviy insonga xos bo'lgan dunyo modeli dunyo haqidagi sodda va ilmiy g'oyalarni o'zida mujassam etadi [2, 671].

“Makon” mazmuni tadqiqotlariga qadimgi Yunoniston faylasuflari katta qiziqish bildirishgan. Makon mazmunining murakkab va muximligini inobatga olib bu mazmunga nisbatan turli fikrlar bildirilgan, shu jumladan bir-biriga qarama qarshi fikrlarga xam duch kelamiz. Xar bir nuqtai nazar ushbu mazmunning u yoki bu nazariy jixatlarini yoritadi.

Ikki barchaga ma'lum bir biriga qarama-qarshi fikrlar makon – joy munosabatlarida quriladi. Arastuning fikricha joy bu ma'lum bir narsani o'ziga sig'diradigan idish (yoki ombor, joy). Qarama-qarshi fikr – obyektlar joy mazmunini belgilaydi (Demokrit, Epikur, Lukretsiy).

Ye. S. Kubryakovaning fikricha, “Makon” va “Joy” turli nomlar bilan bo'lsa xam tadqiqotchi-kognitivistlar tomonidan inson idrokinig tayanch konseptlaridir [4]. Odatda “Obyekt” konsepti faqatgina narsa, predmet, nimadir, qandaydir nomlari bilan belgilanadi. Va bulardan tashqari “Joy” va “Makon” nomlari xam bu ro'xatda uchrab turadi (Vejbiskaya, 1999; Jackendoff, 1991; Heine, Claudi, Hünemeyer, 1990; Levin, Pinker, 1991). Bu ro'yxatga A. Vejbiskaya Nima va Qayerda konseptlarini xam kiritadi.

Faylasuflarning ta'kidlashlaricha Arastuning “Joy” va “Makon” konseptlari falsafa tarixida eng nufuzli xisoblangan [5]. Bu qarashga qarama-qarshi bo'lgan konsepsiya [5] esa I. Nyuton tomonidan davom ettirilib, olim bu “Makon” konsepsiyasini barcha narsalarni saqlaydigan “joy”ga aylantiradi, nomoddiy va mustaqil borliq. Uning nazariyasida joy makonning bir qismi, moddiy jismlar esa o'z xajmiga ko'ra undan o'rin egallaydi.

V. G. Leybnis ushbu fikrga qarama-qarshi xolda makonni xodisalar ketma-ketligi va ular mavjudligining bir-biriga munosabati deb ataydi, ya'ni makonning nisbiyligi nazariyasini ilgari suradi.

Zamonaviy tilshunoslar “Makon” mazmunining yuqoridagi ikki talqinini asos qilib oladilar. “makon” konseptini tadqiq qiluvchi olimlarning aksariyati V. G. Leybnisning fikrini tasdiqlaydilar. Masalan, Ye. S. Yakovleva uzoq/yaqin so'zlari semantikasini taxlil qilar ekan, ular nafaqat “denotativ sfera”ni aks ettiradilar, balki so'zlovchi tomonidan tasirlanayotgan borliqni modellashtirib o'z munosabatini bildiradi [7,14].

Xorijiy kognitolog olimlarning lingvistik tadqiqotlarida “Makon” mazmuni sinkretik tarzda taxlil qilingan, ya'ni u o'zida geomertik makon belgilarini aks ettirib idrokning xissiy belgilaridan xam xoli emas (Langacker, 1991; Talmy, 1985; Topics...,1988).

“Makon” mazmunini falsafiy talqiniga qaytar ekanmiz mualliflarning e'tiborini quyidagi xolatlar tortadi. M. Xaydeggerning falsafasida makon mazmuni “u yoki bu joyda bo'lish” mavzusini anglatadi. M. Xaydeggerning fikricha, joy makonniy markazini tashkil qiladi, joy orqali makon ro'yobga chiqadi. Illyustraiya uchun olim makon manzarasini ko'prik orqali tasvirlaydi. Daryo ustidan o'tgan ko'prik quruqlikni birlashtirgani sababali makon mazmunini aniqlaydi. Boshqa tomondan joy boshqa joylar bilan makon orqali bog'lanadi va shu joylar evaziga makon mavjud bo'ladi.

M. Xaydeggerning fikricha, “Biror joyda bo'lmoq” – o'rab turgan makonga tegishli bo'lmoqni anglatadi (nafaqat jisman). Muxitni o'zgartirgan xolda inson joylarni xosil qiladi [6, 16]. Olimning joy va narsalarga bogliq bo'lgan fikri xam qiziqarlidir. Uning fikricha, narsalar joy sifatida namoyon bo'ladi. “Narsa bo'lish” xususiyati “Makon”ning funksiyasidir, chunki narsa birlamchidir, u makonni mavjudligini ta'minlaydi, u makonni “yaratadi”, makonning narsa xususiyatidagi mavjudligini idrok qilish uchun imkoniyat tug'diradi [6, 26].

Shu tarzda M. Xaydegger falsafasidagi makon xususiyatlarini kuyidagicha ta'riflash mumkin: makon mazmuni haqidagi tasavvurning ideal va jismoniyligi, tipologiyasi (joylar o'rtasidagi aloqa), makon tuzuvchisi insondir, makonga nisbatan narsa birlamchidir.

Shunday qilib zamonaviy tadqiqotlarda makon va joy konseptlari uchun turli qarashlar ilgari suriladi. Umuman olganda material borliq egasi uchun makon ajratib bo'lmaz qismidir. Joy makon haqidagi tasavvurning markazidan o'rin olibyektlar va makon uchun mo'ljal vazifasini bajaradi va xuddi narsalar joydagi mavjud bo'lmaganday, joy xam makondan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi.

"Makon" mazmunining lisoniy talqinini taxlil qilar ekanmiz, tilshunoslarning quyidagi fikriga duch kelamiz, "Makon" mazmuni konseptualizatsiyasi inson ongida oddiy kundalik tushuncha kabi mavjud. Yu. M. Lotman, dunyoning makoniy manzarasi ko'p qavatli bo'lib, o'z ichiga "mifologik universumni, ilmiy modellashtirishni va sog'lom fikr tarzini qamrab oladi", deydi. Shu bilan bir qatorda oddiy insonda "Makon" konsepti turli darajadagi lisoniy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikda asosiy baxs konseptning verballashuvi ustida boradi, ya'ni konseptning tildagi ko'rinishida [5].

ADABIYOTLAR

1. Langacker, R.W. Concept, image, and symbol: The cognitive basis of grammar / R.W. Langacker. – Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 1991. – 395 p.
2. Turdiyeva N. Y., Rahmatullayeva G. N. Inson ichki dunyosi kontseptlarining ingliz lingvomadaniyatidagi o'ziga xosliklari // SAI. 2024. №Special Issue 19. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-ichki-dunyosi-kontseptlarining-ingliz-lingvomadaniyatidagi-o-ziga-xosliklari>
3. Англо-русский словарь по лингвистике и семиотике / под ред. А. Н. Баранова и Д. О. Добровольского. М. : Эдиториал УРСС, 2002. 288 с.
4. Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения. М.: Наука, 1997.-198 с.
5. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: Человек – Текст – Семиосфера – История. М., 1999. 464 с.
6. Хайдеггер М. Разговор на проселочной дороге: Избр. Статьи позднего периода творчества/М. Хайдеггер. М.: Высшая школа, 1991. -190с.
7. Яковлева Е.Б. Сложные лексические единицы в английском языке и речи. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1986. - 115 с.